


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIVAVIY INVESTITSIYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLIVAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLILIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmuradova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnudbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafroz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG..	215
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI	
AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL	222
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI...	
.....	229
Raximov Jo'rabek Raximovich	
XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA EKSPORT FAOLIYATIDAGI ROLI	
.....	236
Shoxida Ibadullayeva	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MINTAQ RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	
YO'LLARI.....	240
Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li	
CHORRAHA SVETOFORLARINING AQLLI AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV PARAMETRLARINI	
SUMO MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	244
Bayozov Ravshan Rajabovich	
M-39 YO'LINING 989-1013 KMLARIDAGI TOG'LI HUDUDLARDA SODIR ETILGAN YTHLARNING	
TAHLILI ASOSIDA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQISH SAMARADORLIGI.....	251
Shokirov Ozod G'aybullay o'g'li	
SHAHAR MAGISTRAL YO'LLARINING TUZILISHI VA TRANSPORT OQIMI	258
Xayrullo Raximovich Baynazarov	
ELEKTROMOBILLAR BATAREYALARINI TURLI IQLIM SHAROITLARIDA QIZDIRISH UCHUN	
SARFLANADIGAN ENERGIYA VA VAQT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH	266
Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich	
ELEKTROMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH STANSIYALARI FAOLIYATINING BOSHQARUV	
MODEL.....	272
Xasanov Bunyodjon Ibragim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING HUDUDIIY	
XUSUSIYATLARI.....	279
Vaisov Dilshod, Madraximov Qahramon	
EKSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY DAVLATLARI	
TARJIBASI	285
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV BAHOLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	
VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	291
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
FERMENTLANGAN NO'XAT UNI VA BUG'DOY UNI ARALASHMASIDAN TAYYORLANGAN NONNING	
SIFATI VA OZIQAVIY QIYMATINI ASOSLASH.....	295
Kamolova Muxlisa, Barakayev Nusratilla	
QURILISH KORXONALARI UCHUN YASHIL STRATEGIK BOSHQARUV MODEL.....	302
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
ИССЛЕДОВАНИЕ ГИДРОГЕОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ СОЛЕВОГО ПЛАСТА И КАРСТА	
ТЮБЕГАТАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ	310
Холбаев Бахром, Курбанов Диярбек	
VALIKLI JINNING IKKI PICHQOLI TIZIMIDA TOLA AJRATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI.....	314
Abdugapparova Sh.N., Yuldashev A.X.	



YO'L-TRANSPORT HODISALARI SODIR BO'LISHIDA HAYDOVCHINING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINING TA'SIRI.....	319
Ulkanov Sardorjon Sodiqjon o'g'li	
QISHLOQ MAHALLALARIDA MARKAZIY ISSIQLIK TIZIMLARINI VODOROD ENERGIYA GENERATORLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIK VA IQTISODIY ASOSLARI.....	323
Askarov Xasanjon, Jumaqulova Zulayho	
MUHIM AXBOROT INFRATUZILMASI OBYEKTLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIK BO'YICHA MUTAXASSISLARNI AMALIYOTGA YO'NALTIRILGAN TAYYORLASH.....	329
G'ulomov Sherzod Rajaboyevich	
BARBOTAJLI ABSORBER QURILMASINING GIDRAVLIK QARSHILIGINI TADQIQ ETISH.....	338
Xalilov Ismoiljon, Askarov Xasanjon	
MAXSUS IQTISODIY VA SANOAT ZONALARIDA KO'P TARMOQLI KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI.....	345
Xusanova Malohat Mingnorovna	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY ZONALAR BO'YICHA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	349
A. B. Qurbonov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI CHEKLAYOTGAN MUAMMOLAR.....	357
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
РЕАЛИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	364
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING ZAMONAVIY SHAKLLARI: NAZARIY ASOSLAR VA GENDER JIHATLARI TAHLILI.....	371
Xasanova Shaxzoda Sarvar qizi	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA YANGI O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TA'LIM RIVOJLANISHINING TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI.....	375
Masharipova Maksuda Becnazarovna	
MEHNAT MUHOFAZASIDA INSON OMILINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	380
Ashirqulova Qurbonoy, Nurbek Mamatov	
BILIMGA ASOSLANGAN AVTONOM AGENTLAR VA RAG TEXNOLOGIYALARI.....	387
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
EKSPORT SALOHİYATINI BAHOLASHDA QIYOSIY USTUNLIK (BALASSA) INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	395
Olchinboyev Otabek Abdusamad o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KORPORATIV MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	399
Abduraxmonov Farrux Talipjanovich	
HUJURLARNI ANIQLASH TIZIMLARIDA TAHDID MODELINI ISHLAB CHIQRISH.....	404
Barotova Zahro Akmaljon qizi	
G'ISHTNI QURITISH VA PISHIRISH JARAYONLARI.....	413
Askarov Xasanjon	
BUG' TURBINALI GENERATORLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNIK YECHIMLARI.....	417
Xudoyqulov Zoki, Eshbekov Muxriddin	
EFFECTIVE WAYS TO USE DEVICES OPERATING IN A MECHATRONICS SYSTEM.....	421
Makhammaillo Aliboyev	
KREATIV IQTISODIYOT VA GENDER INKLYUZIV RIVOJLANISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK: XALQARO TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	427
Sharipova Aziza Faxriddin qizi	



DAVLAT TASHKIOTLARIDA MENTORLIK TIZIMINI JORIY ETISH HOLATI VA INNOVATSION MODELAR TAHLILI	431
Xurshida Maxmadaminova	
O'ZBEKISTONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	440
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSION MODEL OMILLARI VA DRAYVERLARI.....	446
Abruyeva Xilola Sherbekovna	
УПРОЩЕННЫЙ СПОСОБ ВЫЧЕРЧИВАНИЯ ПРОФИЛЯ ЗУБЧАТОГО КОЛЕСА ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ КУРСОВЫХ РАБОТ ПО «ТЕОРИИ МЕХАНИЗМОВ И МАШИН».....	455
Файзуллаев Асамитдин, Файзуллаев Салохитдин	
МОДЕЛИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	459
Джидибаева Гульзат, Абдуллаев Ильгор, Далиев Ахтам	
MAXSUS KIYIMBOR TO'QIMALAR UCHUN BAZALT XOMASHYOSINI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	467
Mustanova Zilola Abdusamat qizi	
РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ И АЛГОРИТМОВ ПАРАМЕТРИЧЕСКОГО 3D-МОДЕЛИРОВАНИЯ ОДЕЖДЫ С УЧЁТОМ АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ФИГУРЫ ЧЕЛОВЕКА	473
Каримбердиева Мохинур Шерзод кизи	
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA FISKAL SIYOSATDAN FOYDALANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	481
Azamatov Po'lat To'liqunovich	
CHIZMA GEOMETRIYA FANINI O'QITISHDA VIRTUAL MUHIT TUSHUNCHASI VA UNING FAZOVIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	487
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
ANDIJON SHAHRI BOBURSHOH KO'CHASIDA TRANSPORT VOSITALARINING XAVFSIZ HARAKATINI TASHKIL ETISH.....	495
Meliqo'ziyev Abdulaziz Rasuljon o'g'li	
CHAQIQ TOSH ISHLAB CHIQARISH TANNARXINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI	501
Qosimov Karimjon, Zuhritdinov Alisher, Kosimova Maloxatxon, Zo'xriddinov Dilmurod, Mahammadjonov Nurmahamad	
COMPOSITION ANALYSIS OF DEMERCAPTANIZED RESIDUAL STREAMS AND GAS CONDENSATES AS RAW MATERIALS FOR THE SYNTHESIS OF MERCAPTAN-CONTAINED ODORANTS	508
Tilloeva Shakhnoza Fakhritdinovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH NATIJADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI.....	514
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING TAMOYILLARI, USULLARI VA BAHOLASH MEZONLARI.....	520
Farxod G'afforovich	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING MAHALLA TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	526
Yodgorov Farrux G'afforovich	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA TASHILADIGAN TOVARLAR USTIDAN BOJXONA NAZORATINING TASHKILY-BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	533
Berdiyev Abbas, Ergashev Qobiljon	
TRANSPORT SOHASIDA MOLIYAVIY FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI (TOSHKENT METROPOLITENI MISOLIDA).....	540
Xamrayev Jamshid Panjiyevich	
JAHON SAVDO TASHKILOTI TALABLARI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	547
Sarmanov Orifjon Adiljonovich	
JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN OLIB KIRILADIGAN TOVARLARGA BOJSIZ OLIB KIRISH NORMASINI QO'LLASH VA BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	554
Nomozov Abduvohid Abdurazzoq o'g'li	

JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN OLIB KIRILADIGAN TOVARLARGA BOJSIZ OLIB KIRISH NORMASINI QO'LLASH VA BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Nomozov Abduvohid Abdurazzoq o'g'li

Bojxona instituti mustaqil izlanuvchisi

Abstract. The article examines the application of duty-free allowances to goods imported by individuals for non-commercial purposes, as well as the collection of customs payments on the portion exceeding the prescribed allowances. Comparative statistical, dynamic, structural, and concentration analysis methods were employed to assess passenger flows, the number of customs receipt orders, the amount of customs payments collected, declaration intensity, and the regional distribution of the relevant indicators. Based on the research findings, scientific proposals and practical recommendations have been developed.

Keywords: duty-free import allowance, de minimis, imports by individuals, customs receipt order, customs payments, declaration intensity, risk management, digitalization, regional concentration.

Annotatsiya. Maqolada jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda olib kiriladigan tovarlarga bojsiz olib kirish normasini qo'llash va normadan ortiq qism uchun bojxona to'lovlarini undirish amaliyoti tadqiq qilingan. Qiyosiy-statistik, dinamik, tarkibiy va konsentratsion tahlil usullari yordamida yo'lovchilar oqimi, bojxona kirim orderlari, undirilgan to'lovlar, deklaratsiya intensivligi va hududiy taqsimoti o'rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: bojsiz olib kirish normasi, de minimis, jismoniy shaxslar importi, bojxona kirim orderi, bojxona to'lovlari, deklaratsiya intensivligi, xavfni boshqarish, raqamlashtirish, hududiy konsentratsiya.

Аннотация. В статье исследована практика применения норм беспошлинного ввоза товаров, ввозимых физическими лицами в некоммерческих целях, а также взимания таможенных платежей с части товаров, превышающей установленные нормы. С применением методов сравнительно-статистического, динамического, структурного и концентрационного анализа изучены пассажиропоток, количество таможенных приходных ордеров, объём взысканных таможенных платежей, интенсивность декларирования и территориальное распределение соответствующих показателей. По результатам исследования разработаны научные предложения и практические рекомендации.

Ключевые слова: норма беспошлинного ввоза, de minimis, импорт физических лиц, таможенный приходный ордер, таможенные платежи, интенсивность декларирования, управление рисками, цифровизация, территориальная концентрация.

KIRISH

Tashqi iqtisodiy aloqalar va xalqaro harakatlanish ko'lamining kengayishi bojxona organlari oldiga fiskal manfaatlarni ta'minlash bilan bir qatorda, yo'lovchilar uchun tezkor va sodda rasmiylashtirish sharoitini yaratish vazifasini qo'yadi. Jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy va oilaviy ehtiyojlar uchun olib kiriladigan tovarlarga nisbatan bojsiz olib kirish normasining qo'llanishi past qiymatli, notijorat operatsiyalarga sarflanadigan ma'muriy xarajatlarni cheklash imkonini beradi. Biroq bir turdagi tovarlarni takroran olib kirish, ularni bir nechta shaxs nomiga bo'lib rasmiylashtirish yoki shaxsiy ehtiyoj ko'rinishida tijorat aylanmasiga kiritish fiskal yo'qotishlar va adolatsiz raqobat xavfini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 157, 161 va 163-moddalarida notijorat maqsadlarda olib o'tiladigan tovarlarga bojsiz norma doirasida bojxona to'lovlarini qo'llamaslik, normadan ortiq qism uchun yagona bojxona to'lovini undirish hamda bojxona kirim orderidan foydalanishning huquqiy asoslari belgilangan [1]. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-apreldagi 244-son qarori bilan transport turiga qarab qiymat normalari,



tovarning notijorat maqsadini aniqlash mezonlari va takroriy olib kirishga doir shartlar aniqlashtirildi [2]. Mazkur huquqiy o'zgarishlar jismoniy shaxslar segmentida nazorat, rasmiylashtirish va resurslar taqsimotini empirik ko'rsatkichlar asosida qayta baholashni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi 2024–2025-yillarda yo'lovchilar oqimi, bojxona kirim orderlari va undirilgan bojxona to'lovlari dinamikasini baholash, hududiy hamda yo'nalishlar bo'yicha konsentratsiyani aniqlash va bojsiz olib kirish normasini qo'llash bilan bog'liq ma'muriy yuklamani kamaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon bojxona tashkilotining qayta ko'rib chiqilgan Kioto konvensiyasi Maxsus J ilovasida yo'lovchilar uchun ikki yo'lakli tizim, og'zaki yoki elektron deklaratsiya hamda qiymat va miqdor chegaralari oshirilganda yozma rasmiylashtirishdan foydalanish nazarda tutilgan. Shuningdek, bojxona organlariga postlarning joylashuvi va ish rejimini mavjud yo'lovchilar oqimidan kelib chiqib belgilash tavsiya etiladi [3]. Bu yondashuv bojxona resurslarini hududlar bo'yicha teng taqsimlash emas, balki real yuklama asosida taqsimlash zarurligini ko'rsatadi.

Jahon bojxona tashkilotining *Immediate Release Guidelines* hujjatida past qiymatli jo'natmalar alohida toifalarga ajratiladi. Hujjatda *de minimis* chegaralarini milliy qonunchilikda aniq belgilash, ularni inflyatsiya, tushumlarni undirish ehtiyoji va past qiymatli tovarlarni soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirish xarajatlarini hisobga olgan holda davriy ravishda qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi [4]. *Risk Management Compendium* hujjatida esa cheklangan nazorat resurslarini yuqori xavfli operatsiyalarga yo'naltirish, ishonchli va past xavfli shaxslar hamda operatsiyalar uchun soddalashtirilgan tartiblarni qo'llash zamonaviy bojxona boshqaruvining asosiy tamoyili sifatida belgilangan [5].

Jahon savdo tashkilotining Savdoni soddalashtirish to'g'risidagi bitimida bojxona to'lovlari elektron shaklda to'lash imkoniyatini yaratish, xavfni boshqarish tizimini qo'llash, nazoratni yuqori xavfli operatsiyalarga qaratish va past xavfli operatsiyalarni tezlashtirish nazarda tutilgan [6]. Transchegaraviy elektron savdo bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ham oldindan elektron ma'lumot olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va avtomatlashtirilgan selektivlik katta hajmdagi past qiymatli oqimlarni boshqarishning asosiy vositalari sifatida baholanadi [7; 8].

Milliy tadqiqotlarda yangi bojsiz olib kirish normalarining mazmuni, ichki bozor va fiskal manfaatlariga ta'siri yoritilgan [9]. Shunga qaramay, mavjud ishlarda yo'lovchilar oqimining o'sishi bilan bojxona kirim orderlari va undirilgan to'lovlar dinamikasi o'rtasidagi tafovut, bir orderga to'g'ri keladigan o'rtacha to'lov, deklaratsiya intensivligi hamda hududiy konsentratsiya o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi sifatida yetarli darajada baholanmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy-amaliy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning empirik bazasini bojxona organlarining 2024–2025-yillarga oid yig'ma ma'lumotlari tashkil etadi. Unda respublika bo'yicha yo'lovchilar harakati, bojxona kirim orderlari (BKO), jismoniy shaxslardan undirilgan bojxona to'lovlari, hududiy bo'linmalar hamda asosiy chegara yo'nalishlari kesimidagi ko'rsatkichlar qamrab olingan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-statistik tahlil, dinamik qatorlar, tarkibiy guruhlash va konsentratsiya usullaridan foydalanildi, maqola matnini tayyorlashda esa sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublika miqyosidagi dinamika. 2024–2025-yillardagi ko'rsatkichlar yo'lovchilar oqimining mo'tadil o'sishiga nisbatan bojxona rasmiylashtiruv va bojxona to'lovlari undirish holatlari ancha tez ko'payganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Respublika bo'yicha yo'lovchilar oqimi, bojxona kirim orderlari va bojxona to'lovlari dinamikasi

Ko'rsatkich	2024-yil	2025-yil	Mutlaq farq	O'zgarish, %
Yo'lovchi harakati, mln nafar	55,40	57,69	2,29	4,13
Bojxona kirim orderlari, dona	44 124	225 588	181 464	411,26
Undirilgan bojxona to'lovlari, mlrd so'm	70,64	305,03	234,39	331,81
DI, 10 000 yo'lovchiga order	7,96	39,10	31,14	390,96
Bir orderga o'rtacha to'lov, mln so'm	1,60	1,35	-0,25	-15,54

Yo'lovchilar soni 2,29 mln nafarga yoki 4,13 foizga oshgan bir paytda, BKOlari soni 5,11 baravarga, ya'ni 411,26 foizga ko'paygan. Natijada har 10 ming yo'lovchiga to'g'ri keladigan orderlar soni 7,96 tadan 39,10 tagacha oshgan. Bu rasmiylashtirish yuklamasi yo'lovchilar sonining tabiiy o'sishi hisobiga emas, balki boj undiriladigan holatlar zichligining ortishi hisobiga shakllanganini bildiradi.

Undirilgan bojxona to'lovlari 70,64 mlrd so'mdan 305,03 mlrd so'mga yetib, 331,81 foizga ko'paygan. Biroq orderlar sonining o'sishi tushumlar o'sishidan yuqori bo'lganligi sababli bir orderga to'g'ri keladigan o'rtacha to'lov 1,60 mln so'mdan 1,35 mln so'mga yoki 15,54 foizga kamaygan. Shu bilan birga, bir yo'lovchiga to'g'ri keladigan bojxona to'lovi taxminan 1,28 ming so'mdan 5,29 ming so'mga oshgan. Demak, jismoniy shaxslar segmentining fiskal ahamiyati ortgan, biroq har bir rasmiylashtirishdan olinadigan o'rtacha tushum pasaygan. Bu ko'p sonli, nisbatan past qiymatli holatlarning bojxona xodimlari vaqtiga tushayotgan bosimini kuchaytirishi mumkin.

BKOlari soni bo'yicha hududiy dinamika 2025-yilda barcha hududiy bo'linmalarda BKOlari soni oshganini ko'rsatadi. Mutlaq o'sishning eng katta qismi Toshkent-AERO IBK hissasiga to'g'ri kelib, mazkur bo'linmada orderlar soni 88 579 taga ko'paygan. Navoiy, Jizzax va Qashqadaryo hududlarida nisbiy o'sish juda yuqori ko'rinsa-da, bunday natija 2024-yildagi past bazaning ta'siri bilan izohlanadi. Shu sababli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda nisbiy o'sish bilan birga mutlaq orderlar soni va umumiy yuklamadagi ulush ham hisobga olinishi lozim (2-jadval).

2-jadval

Hududlar kesimida bojxona kirim orderlari dinamikasi

№	Hududiy bo'linma	2024-yil, dona	2025-yil, dona	Farq, dona	O'zgarish, %
1	Toshkent-AERO IBK	18 515	107 094	88 579	478,42
2	Toshkent viloyati b.b.	8 675	27 717	19 042	219,50
3	Andijon viloyati b.b.	6 047	19 342	13 295	219,86
4	Samarqand viloyati b.b.	1 520	13 949	12 429	817,70
5	Navoiy viloyati b.b.	34	12 136	12 102	35 594,12
6	Namangan viloyati b.b.	1 205	8 834	7 629	633,11
7	Qoraqalpog'iston Respublikasi b.b.	3 605	7 467	3 862	107,13
8	Surxondaryo viloyati b.b.	1 326	7 032	5 706	430,32
9	Xorazm viloyati b.b.	1 564	6 221	4 657	297,76
10	Farg'ona viloyati b.b.	271	5 172	4 901	1 808,49
11	Qashqadaryo viloyati b.b.	46	3 645	3 599	7 823,91
12	Buxoro viloyati b.b.	606	2 940	2 334	385,15
13	Sirdaryo viloyati b.b.	629	2 805	2 176	345,95
14	Jizzax viloyati b.b.	7	992	985	14 071,43
15	Toshkent shahar b.b.	74	242	168	227,03
	Jami	44 124	225 588	181 464	411,26

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2025-yilda Toshkent-AERO IBK 183,81 mlrd so'm tushum bilan jami bojxona to'lovlarning 60,30 foizini shakllantirgan. Toshkent viloyati va Samarqand viloyati bilan birgalikda ushbu uchta bo'linmaning tushumi 241,02 mlrd so'mni yoki jami tushumning 79,0 foizini tashkil etgan. 2024-yilda mazkur uchlikning ulushi 83,65 foizni tashkil etgan. Konsentratsiyaning nisbatan pasayishi Toshkent-AERO IBK ahamiyatining kamayganini emas, balki boshqa hududlarda tushum tezroq o'sganini anglatadi. Biroq umumiy fiskal va operatsion yuklama hanuz yo'lovchilar oqimi yuqori bo'lgan yirik nuqtalarda jamlangan.

Yo'lovchilar oqimining geografik tarkibi bojxona resurslarini qaysi chegara yo'nalishlariga ustuvor ravishda yo'naltirish lozimligini ko'rsatadi. Qirg'iziston, Qozog'iston va xalqaro aeroportlar yo'nalishlari jami yo'lovchilar oqimining 81,60 foizini tashkil etgan. Quruqlikdagi ikkita asosiy yo'nalishning ulushi 61,20 foizga teng. Bu natija nazorat, tushuntirish va tezkor rasmiylashtirish vositalarini hududlar bo'yicha bir xil taqsimlash o'rniga, yo'lovchilar oqimi va deklaratsiya intensivligi birgalikda yuqori bo'lgan postlarda jamlash zarurligini ko'rsatadi (3-jadval).



3-jadval 2024-yilda yo'nalishlar bo'yicha yo'lovchilar harakati

№	Yo'nalish	Yo'lovchilar soni, nafar	Ulushi, %
1	Qirg'iziston	18 190 135	32,80
2	Qozog'iston	15 710 847	28,40
3	Xalqaro aeroportlar	11 306 062	20,40
4	Tojikiston	8 985 867	16,20
5	Turkmaniston	803 038	1,40
6	Afg'oniston	407 892	0,70
	Jami	55 403 841	99,90

Olingan natijalar bojsiz olib kirish normasini faqat fiskal imtiyoz sifatida emas, balki bojxona boshqaruvida rasmiylashtirish xarajatlari va nazorat samaradorligini muvozanatlashtiruvchi vosita sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi. Yo'lovchilar oqimining 4,13 foizga o'sishiga nisbatan BKOlari sonining 411,26 foizga ko'payishi har bir qo'shimcha yo'lovchiga nisbatan rasmiylashtirilayotgan holatlar zichligi tezroq oshganini anglatadi. Bir orderga to'g'ri keladigan o'rtacha to'lovning kamayishi esa ma'muriy jarayonlar tarkibida nisbatan past qiymatli holatlar ulushi ortgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Mazkur xulosa mikroma'lumotlar mavjud bo'lganda tovar guruhlari va qiymat diapazonlari kesimida qo'shimcha ravishda tekshirilishi lozim.

Xalqaro standartlarda bojxona nazoratini yuqori xavfli operatsiyalarga qaratish va past xavfli operatsiyalarni tezlashtirish ustuvor tamoyil sifatida belgilangan [4–6]. O'zbekiston qonunchiligida ham tovarning xususiyati, miqdori, uni olib o'tishning takroriyliigi va safar holatlarini xavfni boshqarish tizimi orqali baholash nazarda tutilgan [2]. Shuning uchun chegarani kesib o'tish chastotasi, takroriy tovar guruhlari, qiymat diapazoni va avvalgi deklaratsiyalar tarixini birlashtiruvchi elektron xavf profilari bojsiz norma doirasida tijorat maqsadlarini yashirish holatlarini aniqlashda samarali bo'lishi mumkin.

Raqamlashtirish past qiymatli, biroq ko'p sonli rasmiylashtirishlarning tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Yo'lovchining oldindan elektron ma'lumot kiritishi, to'lovni avtomatik hisoblash, masofadan turib to'lash va bojxona xodimiga faqat xavfli yoki bahsli holatlarni taqdim etish mexanizmi xizmat ko'rsatish tezligini oshiradi. Bunday yondashuv JSTning elektron to'lov va xavfga asoslangan nazorat talablari, shuningdek, JBTning oldindan ma'lumot olish va soddalashtirilgan deklaratsiya bo'yicha tavsiyalariga mos keladi [4; 6; 8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari 2025-yilda jismoniy shaxslar segmentida bojxona rasmiylashtiruv va fiskal tushum sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi. Yo'lovchilar oqimi 4,13 foizga ko'paygan bo'lsa, BKOlari soni 411,26 foizga, undirilgan bojxona to'lovlari esa 331,81 foizga oshgan. Deklaratsiya intensivligi har 10 ming yo'lovchiga 7,96 tadan 39,10 tagacha ko'tarilgan. Shu bilan birga, bir orderga to'g'ri keladigan o'rtacha to'lov 15,54 foizga kamayib, 1,35 mln so'mni tashkil etgan. Ushbu nisbat fiskal natijalar bilan birga rasmiylashtirish xarajatlari va xodimlar yuklamasini ham muntazam ravishda o'lchash zarurligini ko'rsatadi.

Birinchidan, chegara bojxona postlari uchun deklaratsiya intensivligi, BKOlari soni, bir orderga to'g'ri keladigan o'rtacha to'lov va yo'lovchilarning kutish vaqtidan iborat yagona operatsion monitoring panelini joriy etish maqsadga muvofiq. Kadrlar, infokiosklar, planshetlar va to'lov terminallari mazkur indikatorlarning amaldagi qiymatlari asosida qayta taqsimlanishi lozim.

Ikkinchidan, past qiymatli va past xavfli holatlar uchun oldindan elektron deklaratsiya, boj summasini avtomatik hisoblash va elektron to'lovdan iborat soddalashtirilgan modulni bosqichma-bosqich joriy etish zarur. Modulning samaradorligi bir orderni rasmiylashtirish vaqtining, xodimlar mehnat sarfining va navbatlar uzunligining kamayishi orqali baholanishi kerak.

Uchinchidan, takroriy olib kirish, bir xil tovarlarni turli shaxslar nomiga bo'lib rasmiylashtirish va safar davomiyligiga nomuvofiq bo'lgan tovarlarni aniqlash uchun shaxsning chegarani kesib o'tish chastotasi, tovar guruhi, qiymat oralig'i va oldingi rasmiylashtirish tarixiga asoslangan elektron xavf profilini shakllantirish lozim. Bunda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va qaror mezonlarining huquqiy aniqligi ta'minlanishi zarur.

To'rtinchidan, Qirg'iziston, Qozog'iston va xalqaro aeroportlar yo'nalishlarida bojsiz olib kirish normalari, deklaratsiya tartibi va normadan oshganda qo'llaniladigan to'lovlar haqidagi ko'p tilli vizual yo'riqnomalarni safardan oldingi axborot kanallarida, chegara postlarida va mobil xizmatlarda joylashtirish kerak. Bu qonunchilikni yetarli darajada bilmaslik sababli yuzaga keladigan xatolarni kamaytiradi.

Beshinchidan, bojsiz olib kirish normasining samaradorligini yillik qayta ko'rib chiqishda faqat undirilgan yoki undirilmagan bojxona to'lovlari emas, balki bir rasmiylashtirishga sarflangan ma'muriy xarajatlari, normadan



oshish chastotasi, tovar guruhlari, ichki bozorga ta'sir va ixtiyoriy rioya etish darajasi ham hisobga olinishi lozim. Keyingi tadqiqotlarda mikroma'lumotlar asosida normativ o'zgarishlarning sababiy ta'sirini baholash va raqamli soddalashtirishning xarajat-samara tahlilini o'tkazish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi: O'RQ-400-son, 20.01.2016 (157, 161 va 163-moddalar). <https://lex.uz/docs/-2876354>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-apreldagi 244-son "Ayrim turdagi tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-7484114>
3. World Customs Organization. Revised Kyoto Convention, Specific Annex J, Chapter 1: Travellers. 2008. https://www.wcoomd.org/en/topics/facilitation/instrument-and-tools/conventions/pf_revised_kyoto_conv/kyoto_new/spanj.aspx
4. World Customs Organization. Immediate Release Guidelines. 2018. <https://www.wcoomd.org/en/topics/facilitation/instrument-and-tools/tools/immediate-release-guidelines.aspx>
5. World Customs Organization. WCO Customs Risk Management Compendium, Volume 1. <https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/global/pdf/topics/enforcement-and-compliance/activities-and-programmes/risk-management-and-intelligence/risk-management-compendium-volume-1.pdf>
6. World Trade Organization. Agreement on Trade Facilitation, Article 7: Release and Clearance of Goods. https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/tfa_e.htm
7. World Customs Organization. WCO Study Report on Cross-Border E-Commerce. 2017. <https://www.wcoomd.org/~media/wco/public/global/pdf/topics/facilitation/activities-and-programmes/ecommerce/wco-study-report-on-e-commerce.pdf>
8. World Customs Organization; World Trade Organization. WCO/WTO Study Report on Disruptive Technologies. Geneva, 2022. https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/wco-wto_e.pdf
9. Nomozov A.A. Jismoniy shaxslar tomonidan chetdan olib kelinadigan tovarlarga nisbatan yangi bojsiz olib kirish normalarining qo'llanilishi. Results of National Scientific Research International Journal. 2025;4(5):110-119. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15425693>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100